

TA'LIM OLUVCHILARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MUNOSABATLARNI

Buriyev Abror Ibragim o'g'li

TTA "pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Abduhalilova O'g'iloy

Xushvaqto'v Alisher

Rayxonov Jamshid

O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan taniqli pedagog va psixolog olimlarning ilmiy asarlarida uzluksiz ta'lim tizimida, xususan oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy va shaxsiy salohiyatini takomillashtirish, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va kommunikatsion texnologiyalarni hamda ilg'or xorijiy tajribani joriy etish, ta'lim sub'ektlarida kreativ va emotsional qobiliyatlarni rivojlantirish kabi muammolarning mazmun - mohiyati va ilmiy - amaliy jihatlari ochib berilgan. Ular olib borgan tadqiqotlarga asoslanib bir qator metodikalar ishlab chiqilib, hozirgi kunda ham ushbu metodikalardan unumli foydalanib kelinmoqda. Jumladan, olimlar tomonidan muomala usullari, muomalaning ahamiyatli tomonlari kabi masalalar o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy – psixologik jihatdan tadqiq etish bo'yicha o'ziga xos jihatlarning yuzaga kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Shular asosida hozirgi kunda muomalani o'rganishga oid ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilayotganiga qaramay oliy ta'limda shaxslararo kommunikativ munosabatlarda muammolar ko'plab uchramoqda. Shunday muammolardan biri shaxsni individual xususiyatlaridir. Shaxslararo munosabatlarda shaxsni individual xususiyatlarining o'zni juda muhimdir.

Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarning ichki dunyosini tushunib, muloqotga kirishishi lozim. O'qituvchining muloqot madaniyati asosida gapiradigan har bir so'zi, fikri, turli hodisa va jarayonlar ta'lim oluvchilar tomonidan har xil ko'rinishda tushuniladi, bu o'qituvchining fikr mulohazasiga, ichki dunyosining teranligiga, tafakkuri va dunyoqarashining kengligi bilan izohlanadi, bunda o'qituvchi mahoratining uchta jihatiga alohida e'tibor qaratiladi: hayotiy tajribasi; pedagogik faoliyat jarayonida egallagan ko'nikma va malakasi; muayyan o'qituvchilar jamoasi bilan muomalada bo'lish tajribasi.

Ustoz va shogird o'rtasida muomala quroli til bo'lib, ular bir-birlari bilan bo'ladigan barcha muomala va muloqotlarini so'zlashish yordamida amalga oshiradilar.

Har qanday munosabatlarda muloqot usullaridan foydalanish o'zaro munosabatlarning samaradorligini ta'minlaydi. Bunday usullarga "Ism" usuli, "Munosabatlar oynasi" usuli, "Oltin so'zlar" usullari kiradi.

"Ism" usuli bu suhbatdoshga uning ismi bilan tinimsiz ravishda murojaat qilishdir. Ism bilan murojaat qilish unga nisbatan e'tiborning mavjudligini bildiradi. Bundan

suhbatdoshda muloqotdan qoniqish hissi paydo bo'ladi. "Munosabatlar oynasi" usulida ko'ngildan jilmayish, do'st ekanligini tinimsiz ta'kidlash, himoyalash va ehtiyojlarni qondirish, ijobiy emotsiyalarni paydo qilish kabilarga e'tibor qaratish nazarda tutiladi. Bu usul ham o'zaro munosabatlarda maqsadga erishishni ta'minlaydi. "Oltin so'zlar" usulida xushomad qilish, ya'ni suhbatdoshning ijobiy xislatlarini bo'rttirib ifodalashdir. Ushbu usullar o'zaro munosabatlarda muomalali bo'lishni ta'minlaydi.

Muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida shaxsning shakllangan sifatleri, fazilatlarining ahamiyati juda katta. Jumladan, shaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsa (xushmuomalalilik, kamtarlik, insonparvarlik, to'g'ri so'zlilik, vijdonlilik kabilari) muloqot jarayoni ham yaxshi o'tadi. Chunki shaxslar bir-birini to'g'ri tushunishlari uchun, muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ular samimiy bo'lishlari lozim.

Pedagogik jarayonda ta'lim oluvchilar bilan kommunikativ muloqotni tashkil qilishda ta'lim beruvchining quyidagi vaziyatlardagi tashabbuskorligi talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni shallanishida muhim omil bo'ladi:

- talabalar jamoasi bilan dastlabki suhbat jarayonini oqilona, puxta tashkil qilish;
- tashkiliy marosim va tadbirlardan (salomlashish, ta'lim oluvchilarni tartib bilan o'tqazish, davomatni tekshirish va hokazo) rasmiy va shaxsiy muloqotga tezkor o'tish;
- ta'lim oluvchilar bilan ijtimoiy-psixologik hamkorlikka oson erishish muammolarini izlash;
- ta'lim oluvchilar bilan o'zaro hamkorlikning tashkiliy va sermazmun bo'lishida har qanday salbiy to'siqlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;
- ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabatda o'zining shaxsiy insoniy fazilatlarini namoyon etish;
- ayrim ta'lim oluvchilarga nisbatan bir qolipdagi va bir holatdagi salbiy munosabatlarni bartaraf qilish;
- butun ta'lim oluvchilar jamoasi bilan yaxlit o'zaro ijobiy munosabatni tashkil etish;
- o'zaro hamkorlikning boshlang'ich vaziyatlarida ta'lim oluvchilar jamoasini erkin muloqotga safarbar qila oladigan vazifa va masalalarni ongli ravishda qo'yilishi;
- ta'lim va tarbiya tizimida ta'qiqlangan pedagogik talablarni qo'llamaslik, aksincha yangi, sinalgan, texnologik jihatdan mukammal deb topilgan pedagogik talablarni ko'paytirish;
- o'qituvchi tashqi ko'rinishi bilan (orastalik, tartiblilik, faollik, xush-muomalalik odobi va hokazo) kommunikativ munosabatni ta'minlashga erishishi;
- o'zaro hamkorlikning nutqiy va noverbal vositalarini (mimika, pantomimika, ma'noli qarash) qo'llash orqali munosabatga faol kirishish;
- ta'lim oluvchilar jamoasiga o'zining xayrixohligini, moyilligini, do'stligini namoyish etish;
- ta'lim oluvchilar bilan muloqotda pedagogik faoliyatning yorqin va e'tiborni tortadigan maqsadlarini qo'ya bilish va ularga erishish yo'llarini ko'rsatish;

- ta'lim oluvchilarning har xil vaziyatlarda ichki kayfiyatlarini, his-tuyg'ularini tushunish, uni hisobga olish, hamjihatligini ko'rsata bilish.

Shuning bilan birga talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirishda ta'lim beruvchi tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan harakatlar orasida eng muhimi – talabalarni kursini va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda muloqotga kirishishi, ularga topshiriqning bajarilishini doimiy nazorat qilish asosida ta'lim oluvchilarni rag'batlantirib borish hisoblanadi.

Pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita, bunda o'qituvchining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir.

Professor V.Karimovning fikricha, professional tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi:

– aktiv holat. Bu – tinglayotganda yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash bilan unga qiziqishni bildirish;

– suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish. Bu nafaqat suhbatdoshni o'ziga jalb qilib, balki keyin navbat kelganda o'zining har bir so'ziga uni ham kundirishning samarali yo'lidir.

o'ychan jimlik. Bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzda mas'uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o'zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yo'li [2, b.205]

Demak, tinglash madaniyati muloqot jarayonining samarali bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun biz suhbatdoshimizni diqqat bilan tinglashimiz, unda o'z-o'ziga hurmatni tarbiyalashimiz, uni ilxomlantirishimiz, ruxlantirishimiz kerak. O'qituvchining ma'ruzasini talabalar tomonidan yaxshi tinglansa dars samarali bo'ladi.

Atoqli olim M.G.Davletshin "Yosh davrlari va pedagogik-psixologiya o'quv qo'llanmasida o'spirin shaxsining shakllanishi jarayonida jamoat tashkilotlarining o'rnini alohida ta'kidlab o'tadi. Bunda jamoat ishchilaridagi faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qat'iyatlilik, mas'uliyatlilik, harakatlarini tanqidiy baholash singari fazilatlari orqali ularda muayyan tashkilotchilik qobiliyati namoyon bo'ladi [1. b.85].

Bildirilgan fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, har bir ta'lim oluvchining faoliyati individual xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu ularning aqliy jarayonlari, hisiy va irodaviy harakatlari, temperamenti, xarakteri va qobiliyatlarida o'z ifodasini topadi. Ta'lim oluvchilarning individual xususitlari, bilim, ko'nikma va malakalarini, muvaffaqiyatli egallashga ta'sir etadi. Shuning uchun ta'limning asosiy printsiplaridan biri – "ta'lim va tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarning temperament xususiyatlarini inobatga olish" ga alohida e'tibor berilishi lozimdir.

Ta'lim oluvchilarda kommunikativ qobiliyatlarni tarkib toptirish ularning o'quv faoliyatini samarali tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bu esa ular kasbiy faoliyatining bir maromda kechishini ta'minlab, ortiqcha zo'riqishlarining oldini oladi. Shu bilan birga ularda keyingi bosqich ta'limini puxta o'zlashtira olishlari uchun imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davletshin M.G, Do'stmuhammedova va bosh... Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T-2004. 85-b.
2. Каримова В.М. Психология. Ўқув қўлланма. – Т.: А.Кодирий номидаги халқ мероси нашриёти, “ЎАЖБНТ” маркази, 2002. – 205 б.
3. Baxtiyarovna, S. D., & Shukurullo o'gli, N. J. (2022). TIBBIYOT XODIMLARINING HISSIY–EMOTSIONAL XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(3), 439-443.
4. Baxtiyarovna, S. D., Gavhar, G., & Jasmina, N. (2022). PEDAGOGIK FAOLIYATDA KREATIV YONDOSHUV. *Scientific Impulse*, 1(3), 385-388.
5. Baxtiyarovna, S. D. B. D., & Orifjonovna, Q. H. (2022). KASB TA'LIM METODIKASINING ZAMONAVIY METODLARI. *Scientific Impulse*, 1(3), 417-420.
6. Baxtiyarovna, S. D. (2022). XOTIRA: MUSTAHKAMLASH YO'LLARI, USULLARI VA VOSITALARI. *Scientific Impulse*, 1(4), 328-333.